

KEYS. Kiyim ishlab chiqarishning yashirin ekologik izi

Bitta paxta futbolkasini ishlab chiqarish uchun oʻrtacha 2700 litr suv sarflanadi – bu bir kishining 2,5 yillik ichimlik suvi zaxirasiga teng. Kiyim sanoati nafaqat suv resurslarini, balki butun ekotizimni jiddiy bosim ostida qoldirmoqda. Ushbu keys-stadi orqali biz oʻquvchilarni masʼuliyatli isteʼmolchi boʻlishga va global muammoning yechimida faol ishtirok etishga chorlaymiz.



Suv resurslarining ifloslanishi

Boʻyash jarayonida qoʻllaniladigan kimyoviy moddalar daryolar va yer osti suvlariga tushib, suv resurslarini ifloslantiradi va ekotizimga zarar yetkazadi.



Uglerod izi

Tayyor kiyimlar uzoq masofalarga transport qilinadi, bu esa katta miqdorda issiqxona gazlari ajralib chiqishiga sabab boʻladi.



Chiqindilar muammosi

Tez oʻzgaruvchan moda tendensiyalari tufayli millionlab tonna kiyimlar qisqa muddatda chiqindiga aylanadi, poligonlarni toʻldiradi yoki yoqiladi.

Muhokama uchun savollar

Ushbu savollar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ularni kiyim iste'moli bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishga undash uchun mo'ljallangan.

1. Ekologik "Hayot sikli" tahlili

Agar bugun kiygan futbolkangizni ishlab chiqarish jarayonini ekologik “hayot sikli” (suv sarfi, kimyoviy moddalar, transport, chiqindi) bo'yicha tahlil qilsangiz, uning qaysi bosqichi eng katta ekologik zarar yetkazadi deb baholaysiz? Asosingizni faktlar bilan ko'rsating.

2. Mahsulotlarni solishtirish

Kiyim ishlab chiqarish va iste'mol jarayonini boshqa mahsulotlar (masalan, plastik butilka yoki qog'oz daftar) bilan solishtiring. Qaysi biri atrof-muhitga ko'proq ta'sir qiladi? Nima uchun?

3. Mas'uliyatli iste'molchi yo'riqnomasi

Siz mas'uliyatli iste'molchi sifatida kiyim xarid qilayotganingizni tasavvur qiling. Xarid qilish jarayonida qanday mezonlarga (material, ishlab chiqaruvchi, chidamlilik, qayta ishlanishi) e'tibor berasiz? O'zingizning eko-iste'molchi yo'riqnomangizni ishlab chiqing.

4. "Eko-kiyim kodeksi" taklifi

Agar maktabingiz o'quvchilari uchun “Eko-kiyim kodeksi” ishlab chiqilishi kerak bo'lsa, unda qaysi qoidalarni kiritgan bo'lardingiz? Buni yaratishda adolat, barqarorlik va amaliylik tamoyillarini qo'shib izohlang.

5. "Eko-moda haftaligi" samaradorligi

Agar maktabda “eko-moda haftaligi” tashkil etilsa, uning samaradorligini qanday mezonlar bo'yicha baholash mumkin? O'quvchilarda ekologik tafakkur shakllanishi uchun qanday ijodiy faoliyatlarni qo'shgan bo'lardingiz?



“Kiyim ishlab chiqarishning yashirin ekologik izi” keys savollarini baholash mezonlari

Mezon	A’lo (3 ball)	Yaxshi (2 ball)	Qoniqarli (1 ball)
Tahliliy yondashuv	Kiyim hayot siklini chuqur tahlil qiladi; zararli bosqichni dalillar bilan ko’rsatadi.	Tahlil qisman, faqat 1–2 jihat yoritilgan.	Faqat umumiy fikr bildiradi, faktlarsiz.
Baholash va solishtirish	Muqobil yechimlarni yoki mahsulotlarni solishtirib, ustuvorlikni asoslaydi.	Qisman solishtiradi, izoh yuzaki.	Oddiy baho beradi, asos yo‘q.
Ijodkorlik	Innovatsion g‘oyalar, eko-moda tashabbuslari va kelajak ssenariylarini taklif qiladi.	Ijodiylik mavjud, lekin cheklangan.	Juda oddiy g‘oyalar, ijodiylik past.
Amaliylik	Tashabbus maktab sharoitida amalga oshirishga yaroqli, bosqichlari aniq.	Amaliy jihatlar qisman yoritilgan.	Juda umumiy, tatbiq etish qiyin.
Muloqot va taqdimot	Javob aniq, tartibli, dalillar va misollar bilan boyitilgan.	Javob o‘rtacha tartibda, dalillar kam.	Javob qisqa, chalkash yoki dalilsiz.